



Bo'riyeva Mahbuba,
*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot
 instituti kichik ilmiy xodimi*

MIGRATSIYA SHAROITIDAGI OILALARNING O'ZARO EMOTSIONAL MUNOSABATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola migrant oilalaridagi er-xotinning o'zaro emotsional munosabatlari xususiyatlariga bag'ishlangan bo'lib, ularning muammolari ochib beriladi. Maqolada migrant oilalar bo'yicha tadqiqot olib borgan xorijlik olimlarning tadqiqot natijalari taqdim etilgan.

Tayanch so'zlar: migrant oilalar, migratsiya, tarbiya, psixologik xizmat, emotsional munosabatlar, qadriyatlar, tadqiqot, simpatiya, nikoh, nikohdan qoniqqanlik.

Аннотация. Данная статья посвящена особенностям эмоциональных отношений супругов в семьях мигрантов, раскрытию их проблем. В нём представлены результаты исследований зарубежных ученых, проводивших исследования семей мигрантов.

Ключевые слова: семья мигрантов, миграция, воспитание, психологические услуги, эмоциональные отношения, ценности, исследования, симпатия, брак, удовлетворенность браком.

Annotation. This article is devoted to the peculiarities of the emotional relations of spouses in the families of migrants, the disclosure of their problems. It also presents the results of research by foreign scientists who conducted research on migrant families.

Key words: migrant family, migration, upbringing, psychological services, emotional relationships, values, research, sympathy, marriage, marital satisfaction.

Kirish. Hozirgi globallashtgan dunyoning asosiy tendensiyalaridan biri migratsiyadir. Migratsiya millionlab odamlarni etnik, madaniy, til va irqiy guruhlariga bo'linishiga olib keldi va hozirgi kunda ham shunday davom etib etayotir. Migratsiya asrlar va ming yillar davomida insoniyatning yashashi, moslashishi hamda rivojlanishining asosiy manbayi bo'lib kelgan. Migratsiya muammosi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Zamonaviy dunyoda migratsiya jarayonlari xilma-xil va ko'p qirrali bo'lib, ko'plab sohalarda tadqiqot obyekti hisoblanadi¹.

¹ Зотов В.В., Каменева Т.Н., Орлов Е.М. Социокультурные риски семейно-брачных отношений в условиях глобализация пространства жизнедеятельности

Migratsiyada oiladan uzoqda bo'lish turmush sharoitining o'zgarishi oiladan ajralish, nikohning uzilishini keltirib chiqarishi mumkin. Rafiqasi bilan rasman turmush qurgan ayrim migrantlar boshqa davlatga ishga ketganda o'sha davlat fuqarosi bilan odatda yaqin munosabatlarga kirishishi mumkin. Bu munosabatlar norasmiy fuqarolik nikohi sifatida qayd etiladi.

Har qanday oilada, ayniqsa, uning dastlabki bosqichlarida kutilayotgan muammolar bilan bir qatorda, migrantlik maqomi qo'shimcha tushunmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin.

человека // Ученые записки. Электронный научный журнал Курского государственного университета, 2013. – С.82 // <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsiokulturnye-riski-semeyno-brachnyhotnosheniy->

Asosiy qism. Ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilar ekanmiz, turmush o'rtloqlardan biri boshqa davlatga migratsiya tufayli ketganda, oilalarning nikoh munosabatlaridagi muammoli holatlar psixologiyada yetarlicha o'rganilmagan, degan xulosaga kelishimizga turtki beradi. Aynan migratsiyadagi er-xotinlar orasidagi masofaviy nikohlarning funksiyalari bo'yicha keng qamrovli psixologik tadqiqotlar juda kam.

Turmush o'rtloqlardan birining boshqa davlatga ishlashga ketishi natijasida uzoq vaqt ayro yashash ular uchun doim stressli holatdir. Migratsiya sababli er-xotinlardan birining uzoqda bo'lishi oqibatida bunday oilani ko'pincha funksional to'liq bo'lmagan oilalar, deb atalishi bejiz emas. Bunday vaziyatlarda turmush o'rtloqlarning ruhiy zarbaga uchrashi oilaviy hayotdagi ko'plab murakkab oqibatlar – stressga va hatto ajralishga olib kelishi mumkin.

Oila buzilishi murakkab shakllanish hodisasi sifatida quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- oilaning buzilishiga sabab bo'luvchi omillar (oila duch keladigan qiyinchiliklar – bu holda turmush o'rtloqlardan birining mehnat migratsiyasi);
- oilaga salbiy ta'sir (er-xotinlardan birining migratsiya sabab ketishi uyda qolgan turmush o'rtog'ida ijtimoiy muloqotning pasayishiga olib kelib, ish joyida haddan tashqari jismoniy va ruhiy stress tufayli jinsiy norozilikning rivojlanishiga ta'sir qiladi);

- oilaviy munosabatlarning buzilishi yuzaga kelgan holatda oilaning reaksiyasi (munosabatlar yomonlashuvi oila a'zolari tomonidan qanday tushuniladi va u umuman sodir bo'ladimi yoki yo'qmi?)².

Shuni ta'kidlash kerakki, turmush o'rtloqlardan birining migratsiyasi oila tizimining buzilishiga olib kelishi yoki aksincha, oilani birlashtirishi, uni yanada kuchliroq, turli xil stresslar ta'siriga nisbatan chidamliroq bo'lishiga sabab bo'ladi.

Tabiiyki, oilalar yuzaga keladigan qiyinchiliklarga turlicha yo'llar bilan o'z munosabatlarini bildirishadi. Bir muammo ustida ular ko'proq birlashib harakat qilsa, boshqalarga nisbatan ular zaifroq ta'sirga ega bo'lib, qarama-

qarshilik va buzilishlarning kuchayishiga olib keladi.

Oila psixologiyasida oilalarning qiyinchiliklarga olib keladigan salbiy oqibatlarga qarshilik ko'rsatishi turlicha izohlanadi.

V.V.Gritsenko, M.N.Yefremenkova, N.V.Muravdenkova va T.N.Smotrovalar o'zlarining migrant va migrant bo'lmagan oilalarning emotsional munosabatlarini o'rganishda tadqiqot ishlarini olib borishgan. Tadqiqot natijasida sevgi va simpatiya shkalasi bo'yicha o'rtacha guruh ko'rsatkichlari, shuningdek, migrantlar va migrant bo'lmagan oilalardagi umumiy emotsional munosabatlar darajalari ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish natijasida sezilarli farqlar aniqlangan. Ehtimol, bu turmush o'rtloqlar o'rtasidagi emotsional munosabatlar (migrant va migrant bo'lmagan oilalarda) oilani shakllantirish va saqlashning muhim tarkibiy qismi hamda qiyinchiliklarni yengish uchun asosiy manba ekanligi bilan bog'liq.

1-jadval

**Migrant va migrant bo'lmagan oilalarda
emotsional munosabatlar**

	Migrant oilalar		Migrant bo'lmagan oilalar	
	erkak-lar	ayol-lar	erkak-lar	ayol-lar
Sevgi shkalasi (maksimal 28 ball)	24	23	24	23
Simpatiya shkalasi (maksimal 28 ball)	22	22	22	21
Emotsional munosabatlar umumiy bal ko'rsatkichida (maksimal 56 ball)	46	45	46	44

Natijalar shuni ko'rsatdiki, migrant va migrant bo'lmagan oilalarda ham eng ko'p uchraydigan munosabatlar turi simpatiyadan ko'ra sevgining ustunligi bilan tavsiflangan emotsional munosabatlardir.

Bu kabi erlarni xotinlaridagi hurmat yoxud hayratlanish bilan solishtirganda, ayollarda jinsiy munosabatlar va emotsional bog'lanish susayadi, buni migratsiya sababli er-xotinning ma'lum vaqt bir-biridan uzoqlashishi, oiladagi rollar taqsimotining o'zgarishi, xotinning uy-ro'zg'ordagi yumushlarining ortishi (jismoniy, psixo-emotsional, axloqiy va boshqalar) bilan bog'liqligi ko'rsatadi.

² Зотов В.В., Каменева Т.Н., Орлова Е.М. Социокультурные риски семейно-брачных отношений в условиях глобализации пространства жизнедеятельности человека // Ученые записки. Электронный научный журнал Курского государственного университета, 2013. – С. 82 // <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsiokulturnye-riski-semeyno-brachnyhotnosheniy->

Shunday qilib, migrantlar turmush o'rtloqlarining bir-biridan vaqtinchalik uzoqda yashashi jinsiy munosabatlar va bog'lanishdagi susayish faktoriga sababchi bo'lishi mumkin. Vaqtinchalik ajralish migrant erkaklarda oilaga nisbatan g'amxo'rlik, bog'lanish va jinsiy munosabatlarni oldingiday saqlab qolish yoki yanada ko'tarilish darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Buning sababi migrant erlarning, bir tarafdin, xotinidan va kundalik oilaviy tashvishlardan uzoqlashishi bo'lsa (ham jismoniy, ham psixo-emotsional), boshqa tomondan, ayoli va uyini sog'inish emotsional munosabatlar darajasini saqlab qolishga yoki oshirib borishiga turtki bo'ladi. Aynan tadqiqotlar doirasida ayollarga nisbatan erkak migrantlarda sevgi va oiladagi o'zaro munosabatlar darajasi qiyosiy tahlilda yuqori ko'rsatkichni ko'rsatgan³.

Migrant va migrant bo'lmagan oilalarda simpatiya ko'rsatkichlarini taqsimlashda sezilarli farqlar aniqlanmadi, shu bilan birga, taqqoslangan guruhlardagi barcha respondentlarning aksariyati sherigiga hurmat, hayrat va o'xshashlikning yuqori darajasi bilan ajralib turadi. Migrant oiladagi erlarning emotsional munosabatlari ayollariga qaraganda yuqori bo'ladi. Shuningdek, migrant bo'lmagan oiladagi erlarning emotsional munosabatlari ham yuqori bo'lishi kelib chiqdi. Olingan ma'lumotlar bir tomondan migrant oilalardagi xotinning eridan vaqtincha ajralishi uning emotsional holatiga ta'siri haqidagi farazni tasdiqlaydi.

Umuman olganda, migrant oilalardagi erlar ayollardan ko'ra turmush o'rtog'i faqat uning o'ziga tegishli ekanligi haqidagi asoslangan e'tiqodni tasdiqlaydi. Ehtimol, bu rashk va shubhalar mavzusining dolzarbligi bilan bog'liqdir.

Bundan tashqari, migrant oilalarda migrant bo'lmagan oilalarga nisbatan turmush o'rtloqlar bir-birining tashqi jozabadorligini yuqori baholaydi.

Tahlil yana shuni ko'rsatdiki, migrantlarning ayollari turmush o'rtloqlari, migrant bo'lmagan ayollardan farqli o'laroq, birgalikda dam olish sharoitida o'zlari va erlaridagi emotsional holatining o'xshashligini ta'kidlaydilar. Ya'ni migrant oilalarda, migratsiya sababli turmush o'rtloqlarning birgalikda dam olish holatlari kam uchraydi va turmush o'rtloqlarning emotsional fonining birligi

³ Гриценко В.В., Ефременкова М.Н., Муратценкова Н.В., Смотров Т.Н. Семьи трудовых мигрантов: социально-психологическая адаптация к условиям вынужденной разлуки. — Смоленск: Смоленский гуманитарный университет, 2014. — С. 90.

mavjud bo'lib, bu sherigining emotsional holatiga moslashishga ko'proq e'tibor berish bilan bog'liqdir. Bu ham er tomonidan, ham xotin tomonidan namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, migrant oilalarda har ikkala turmush o'rtog'i ham yashash joyida ishlaydigan oilalarga nisbatan nikohning bir shakl tizimidagi emotsional munosabatlari o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi, degan taxminni tasdiqlashadi. Umuman olganda, migrant oilalar har ikki tomonlama emotsional munosabatlar — sevgi va simpatiya, shuningdek, sheriklarining jozibadorligini o'zaro ancha yuqori darajada baholashi bilan ajralib turadi.

F.Dyuvel va D.Fogel mehnat migratsiyasini o'rganish asosida migrantlar tipologiyasini quyidagilarga ajratadilar:

1. Qaytishga yo'naltirilgan migrantlar — borgan mamlakatida qisqa muddatga qoladi va asosiy e'tiborni o'z mamlakatiga qaratadi.

2. Turli sabablarga ko'ra ketgan mamlakatiga doimiy yoki uzoqroq vaqt yashash niyatidagi emigrantlar/immigrantlar (ish, nikoh, turmush tarzi). Bu migrantlar o'z vatanlari bilan mustahkam aloqada bo'lib turishadi.

3. O'z mamlakatida oilasini boqish uchun boshqa mamlakatlarda uzoq vaqt ishlashga ketgan migrantlar. Bu migrantlar e'tiborini ham o'z davlatlariga, ham boradigan davlatiga yo'naltirgan bo'ladi.

4. Global ko'chmanchilar (Global nomads) — bu turli mamlakatlarda yashab ishlaydigan va xalqaro yo'nalishga ega bo'lgan migrantlar. Bu migrantlar juda mobillashgan va ish imkoniyatlariga qarab bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko'chib yurishadi. Bu turdagi migratsiya harakati nisbatan yangidir⁴.

G.Engbersen va uning hamkasblari migrantlarning o'z vataniga va yangi yashash davlatiga bog'lanish darajasiga qarab migratsiyaning to'rt turiga ajratadilar:

1. Davriy migratsiya (mavsumiy ishchilar) — bunda migrantlar o'z vatanlariga kuchli, boradigan davlatlariga esa zaif bog'langan bo'ladi.

2. O'z davlatiga ham, boradigan davlatiga ham qattiq bog'langan migrantlar.

3. O'z davlatiga ham, boradigan davlatiga ham zaif bog'langan migrantlar.

⁴ Contemporary Polish Migration in Europe. Complex Patterns of Movement and Settlement / A.Triandafyllidou (Ed.). New York: Edwin Mellen Press, 2006. p. 340.

4. O'z vataniga zaif, boradigan davlatiga esa kuchli bog'langan migrantlar (bunday migrantlar uzoq vaqt yangi vatanida yashaydilar)⁵.

Smolensk gumanitar universitetining bir guruh tadqiqotchilari migrant va migrant bo'lmagan oilalarda nikohdan qoniqish darajasi bo'yicha tadqiqot ishlari olib borishgan. Tadqiqot natijasida migrant oilalarda qiyinchiliklarni bartaraf etishning samarali mexanizmlari mavjudligi, er-xotinlarning migratsiya sababli bir-biridan uzoqlashishi mavjud bo'lgan og'ir oilaviy vaziyatga qaramay, ularning nikohdan qoniqish tuyg'usini his qilishi aniqlangan. Bu nikoh munosabatlarini saqlab qolish bilan bog'liq bo'lgan migratsiyaning ijobiy tomonlari haqidagi taxminni tasdiqlaydi.

Tadqiqot olib borish jarayonida migrant oila vakillari hayot sohalaridan qoniqishlarining asosiy ikki bosqichini qayd etdilar: turmush o'rtoqlardan birining ishlash uchun ketishi zarurligi to'g'risida qaror qabul qilishdan oldingi bosqichda va oilada bir-biridan uzoqlashgan sharoitda yashagan bosqichda. Migrant bo'lmagan oilalarda olib borilgan tadqiqot jarayonida ular hozirgi paytdagi hayotning asosiy sohalaridan qoniqishlarini qayd etishgan.

2-jadval

Migrant va migrant bo'lmagan oilalarda hayot sohalaridan qoniqish

Qoniqqanlik	Migrant oilalar		Migrant bo'lmagan oilalar	
	Erkak	Ayol	Erkak	Ayol
Ota-ona bilan munosabat	1,6	1,7	1,5	1,5
Turmush o'rtoq bilan munosabat	7,8 ^j	1,9 ^d	1,4 ^s	1,5 ²
Bolalar bilan munosabat	1,7 ^s	1,7 ^d	1,2 [']	1,2 ^s
Qarindoshlar bilan munosabat	1,8	1,9	1,6 ^d	1,9 ^s
Do'stlar bilan munosabat	1,8	1,8	1,7	1,8
Borgan davlati fuqarolari bilan munosabat	2,1	2,1	2,0	2,0
Atrofdagi insonlarga munosabat	2,1	2,0	2,2	2,0

⁵ Engbersen G. On the differential attachments of migrants from Central and Eastern Europe: A typology of labour migration / G.Engbersen, A.Leerkes, I.Grabowska-Lusinska, E.Snel, J.Burgers // Journal of Ethnic and Migration Studies. – 2013. – Vol. 39, № 6. pp. 959-981.].

Boshqa millat vakillariga munosabat	2,4	2,1	2,3	2,1
Hayotiy maqsadlarga munosabat	1,7	1,7	1,8	1,8
Kasbiga munosabat	1,6	1,8	1,7	1,6
Jamiyatga munosabat	1,7 ²	1,9 [']	1,5	1,8
Hayot tarziga munosabat	1,7 ^s	2,0 [']	1,7	1,7

Shunday qilib, tadqiqot yordamida olingan natijalar migrant oilalardagi munosabatlar va oilaviy muhitdagi er-xotinlarning munosabatlari haqida quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. Oiladagi munosabatlarning emotsional foni. Migrant turmush o'rtoqlar o'z nikohlarini migrant bo'lmagan turmush o'rtoqlarga qaraganda ijobiy ("baxtli", "mukammal", "a'lo")dan neytral-salbiy ("qoniqarli", "boshqalardan yomon emas", "o'rtacha", "yaxshi", "ideal emas") deb taqqoslaydi. Boshqacha qilib aytganda, turmush o'rtoqlarning bir-biridan uzoqlashishi ular holati tomonidan muvaffaqiyatli va farovon hayot deb qabul qilinmaydi. Shu bilan birga, migrantlarning ayollari, odatda, oddiy migrant bo'lmagan oiladagi ayollarga qaraganda erlari bilan o'zaro tushunish darajasini pastroq baholaydi. Migrant oilalarda er-xotinlar o'rtaida kelishmovchiliklar yuzaga kelganda, qoidaga ko'ra, xotin, bir tomondan, birinchi bo'lib yon beradi va murosa qiladi, nikoh ittifoqining barqarorligiga hissa qo'shadi. Ikkinchi tomondan, oilasini saqlab qolish uchun o'z manfaatlarini qurbon qiladi, bu, albatta, umumiy emotsional holatiga ta'sir qilmasligi mumkin emas.

2. Er-xotinlarning bir-birlari haqidagi ta'savvurlari. Migrant oilalardagi turmush o'rtoqlarning bir-biridan ma'lum vaqt uzoqlashish sharoitida erkak migrantlar ayollarining fikriga tayangan holda, o'z-o'zini qatiqqo'l va qo'pol tasavvur qilishadi, erlar esa xotinlarini sabrli va yumshoq, deb bilishadi. Shu bilan birga, migrantlarning ayollari, migrant bo'lmagan oila ayollariga qaraganda o'zlarida erkaklik fazilatlarini, ya'ni faollik, kuch va eri yo'qligida ayollarning erkaklar bajaradigan funksiyalarining bir qismini o'z zimmasiga olishi natijasida uning rivojlanishi va an'anaviy ravishda erkaklarniki deb hisoblangan fazilatlarni o'zida namoyon etishga moyil bo'ladi.

3. Oilaning atrof-muhit bilan o'zaro munosabati. Migrantlarning oilalari migrant bo'lmagan oilalarga qaraganda yaqin ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatga kirishishda ko'proq yordam qabul qilishiga muhtoj bo'ladi va migrant bo'lmagan

oilalardagi turmush o'rtloqlarga qaraganda bobosi va buvisi, ota-onasi, do'stlarining qarindoshlaridan har qanday yordam, qo'llab-quvatlashni, maslahatlarni oladi.

4. Kutishlar va maqsadlar. Migrant oilalarning, ayniqsa, erkaklarning ustuvor maqsadlari orasida, birinchi navbatda, moddiylik ahamiyatga ega: oilani moddiy jihatdan ta'minlash, farzandlar uchun normal yashash sharoitlarini yaratish.

5. Bolalarga munosabat. Migrantlarning oilalarida, shuningdek, migrant bo'lmagan oilalarda bolalarga nisbatan ijobiy munosabat hukm suradi. Shu bilan birga, migrant erkaklar va ayollarda, migrant bo'lmagan oilalarga qaraganda bolalar taqdiri uchun tashvishlanish, o'z farzandlariga vaqt va e'tiborni yetarlicha bera olmayotgani bilan bog'liq aybdorlik hissi.

6. Turmushdagi qiyinchiliklar, muammolar va ularning yechimi. Oiladagi asosiy muammolar qatoriga migrant oilalardagi erlar ham, ayollar ham rashk muammosini sanab o'tishadi. Shu bilan birga, erkak migrantlar moddiy sohani ham belgilaydilar, ularning ayollari esa uy-xo'jaligi sohasini ta'kidlashadi⁶.

⁶ Гриценко В.В., Ефременкова М.Н., Муратсенкова Н.В., Смотров Т.Н. Семьи трудовых мигрантов: социально-психологическая адаптация к условиям вынужденной разлуки. — Смоленск: Смоленский гуманитарный университет, 2014. — С.117.

N.S.Palagina migrantlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi jarayoni bilan birga keladigan qiyinchiliklar haqida aytib o'tadi. N.S.Palagina shaxsiy o'zgarishlarga, o'z-o'zini hurmat qilishning pasayishiga, stereotiplarning buzilishiga, qiymat yo'nalishlari va ijtimoiy ustanovkalarga o'z e'tiborini qaratadi. Bu, o'z navbatida, migrantlarning xatti-harakatlarida asabiylashish, himoya pozitsiyasini egallash istagi va boshqalardan salbiy hujumlarni kutish shaklida namoyon bo'lishi mumkin⁷.

Xulosa. Xulosa o'rinda shuni aytish joizki, xorij tadqiqotlari natijalariga ko'ra, migratsiya oqibatida biz oilaning asosiy psixologik xususiyatlarini, masalan, turmush o'rtloqlarning nikohdan qoniqishi, emotsional munosabatlari, oilaviy rollarning tuzilishi, oiladagi nizolar, bolalar va ota-onalar munosabatlari va oilaning psixologik iqlimida o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Shuni ta'kidlash mumkinki, oila kichik guruh sifatida xarakterlanar ekan, migrant oilalarida nikohdan qoniqish darajasi pastligi, moddiy va maishiy muammolar paydo bo'lishi sababli oilada nizolar ko'payadi. Migrant oilalarda migrant bo'lmagan oilalarga qaraganda ota-ona va bola munosabatlari farq qiladi.

⁷ Тарновска-Якобец, 2005 Тарновска-Якобец У. Социализация в семьях с дистантным отцовством: монография. — Москва: Изд-во Моск. гуманит. ун-та, 2005.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Гриценко В.В., Ефременкова М.Н., Муратсенкова Н.В., Смотров Т.Н. Семьи трудовых мигрантов: социально-психологическая адаптация к условиям вынужденной разлуки. — Смоленск: Смоленский гуманитарный университет, 2014. — С. 90-117.
2. Contemporary Polish Migration in Europe. Complex Patterns of Movement and Settlement / A.Triandafyllidou (Ed.). New York: Edwin Mellen Press, 2006. p. 340.
3. Engbersen G. On the differential attachments of migrants from Central and Eastern Europe: A typology of labour migration / G.Engbersen, A.Leerkes, I. Grabowska-Lusinska, E.Snel, J.Burgers // Journal of Ethnic and Migration Studies. — 2013. — Vol. 39, № 6. pp. 959-981.
4. Гриценко В.В., Ефременкова М.Н., Муратсенкова Н.В., Смотров Т.Н. Семьи трудовых мигрантов: социально-психологическая адаптация к условиям вынужденной разлуки. — Смоленск: Смоленский гуманитарный университет, 2014. — С.117.
5. Диденко Е.Н. Психология события супругов в семьях моряков и "береговых" семьях: Автореф. дис. ... канд. психол. наук. — Краснодар, 2008.
6. <https://www.un.org/en/global-issues/migration>
7. Тарновска-Якобец У. Социализация в семьях с дистантным отцовством: монография. — Москва: Изд-во Моск. гуманит. ун-та, 2005.
8. Зотов В.В., Каменева Т.Н., Орлов Е.М. Социокультурные риски семейно-брачных отношений в условиях глобализации пространства жизнедеятельности человека // Ученые записки. Электронный научный журнал Курского государственного университета, — 2013 г. // <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsiokulturnye-riski-semeyno-brachnyhotnosheniy->